

**“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA MILLIY RUHNING POETIK
TAKOMILI**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası
assistenti*

Imomqulova Gulchehra Norboboyevna

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-
bosqich talabasi*

O‘ktamova Orasta Rustamjon qizi

Annotatsiya: *O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani yozuvchining adabiy merosida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asar insoniy taqdirlar va hayot murakkabliklarini tasvirlashdagi yuksak mahorati bilan ajralib turadi. Asarda urushning g‘ayri insoniy mohiyati ochib berilib, uning inson qalbiga yetkazgan jarohatlari, ota-onalarga solgan dardi chuqur falsafiy mushohada asosida yoritilgan. Urush nafaqat jang maydonida, balki oddiy insonlar hayotida ham og‘ir iz qoldirgani, kishilarning ruhiy va jismoniy iztiroblarga duchor bo‘lgani romanning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Roman qahramonlari timsolida mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-bardoshlilik kabi milliy va umuminsoniy fazilatlar mujassamlangan. Yozuvchi xalq hayotini, urush davrining murakkab sharoitlarini realistik uslubda aks ettirib, inson qadr-qimmatini, mehr-oqibat va adolat singari tushunchalarga alohida urg‘u beradi. Asarda urush faqat o‘lim va vayronagarchilik emas, balki oilalar tanazzuli, insoniy munosabatlarning sinovga qo‘yilishi kabi masalalar bilan ham yondashgan.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, qonli urush, umuminsoniy pafos, Orif oqsoqol, Xusan Duma, Robiya, Ra‘no, hikoyalar kompozitsiyasi, taqdirlar romani.*

Annotation: *O‘tkir Hoshimov’s novel “Between Two Doors” holds a special place in the writer’s literary legacy. This work stands out for its masterful depiction of*



human destinies and the complexities of life. The novel reveals the inhumane essence of war and, through deep philosophical reflection, portrays the wounds it inflicts on the human soul and the pain it causes to parents. One of the main ideological directions of the novel is the idea that war leaves a heavy mark not only on the battlefield but also on the lives of ordinary people, subjecting them to both spiritual and physical suffering. The characters in the novel embody qualities such as courage, resilience, humanism, and patience, representing both national and universal values. The author realistically reflects the life of the people and the harsh conditions of the wartime period, placing special emphasis on concepts like human dignity, compassion, and justice. The novel addresses not only death and destruction caused by war but also issues such as the disintegration of families and the testing of human relationships.

Keywords: humanism, bloody war, universal pathos, Orif Oqsoqol, Khusan Duma, Robiya, Ra'no, story composition, novel of destinies.

Аннотация: Роман Откира Хошимова «Между двумя дверями» занимает особое место в его литературном наследии. Это произведение выделяется высоким мастерством в изображении человеческих судеб и жизненных сложностей. В романе раскрывается бесчеловечная сущность войны, глубоко философски осмыслены душевные раны, нанесённые людям, и страдания, причинённые родителям. Война оставила тяжёлый след не только на поле боя, но и в жизни простых людей, став причиной как душевных, так и физических страданий — это одна из главных идейных направлений романа. В образах героев воплощены такие национальные и общечеловеческие качества, как мужество, стойкость, гуманизм и терпение. Писатель реалистически отражает жизнь народа и сложные условия военного времени, придавая особое значение таким понятиям, как человеческое достоинство, доброта и справедливость. В романе война показана не только как смерть и разрушение, но и как причина распада семей и испытание человеческих отношений.

Ключевые слова: гуманизм, кровопролитная война, общечеловеческий пафос, Ориф-аксакал, Хусан Дума, Робия, Ра'но, композиция рассказов, роман судеб.



KIRISH

O‘tkir Hoshimov – el suygan, millat faxri sanalgan zabardast adib, so‘z san’ati mohir ustasi edi. Uning sermazmun, ruhiy teranlikka boy asarlari nafaqat o‘zbek xalqining, balki boshqa qardosh xalqlarning ham bebaho ma’naviy mulkiga aylangan. “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki – soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh” kabi zamonaviy qissa va romanlari, yuzdan ortiq yuraklarga yo‘l topgan hikoyalari, qiziqarli komediyalari va ibratli fojealari xalq orasida keng tarqalib, keng ommaning mehrini qozongan. Adibning har bir asari inson qalbini larzaga soluvchi, hayot haqiqatlarini teran ochib beruvchi yuksak badiiy namunadir.

Kitobsevar sifatida men yozuvchining “Ikki eshik orasi” romaniga e’tibor qaratmoqchiman.

Mazkur roman 1986-yilda chop etilgan bo‘lib, unda Toshkent atrofidagi qishloqlardan birining yigirma besh yillik hayoti tasvirlangan. Asar voqealari urush oldi davrida boshlanib, urush yillari va urushdan keyingi bosqichda davom etadi hamda 1966-yilgi Toshkent zilzilasi bilan nihoyasiga yetadi. Romanning tuzilishi ham o‘ziga xos. U yetti bo‘limdan iborat bo‘lib, bu bo‘limlar qirq yetti bobni tashkil qiladi. Har bir bob qahramonlarning og‘zidan hikoya qilinadi. Asardagi voqealarni bayon qilishda to‘qqizta obraz ishtirok etadi. Bunday ifoda shakli ancha murakkab, chunki voqealarning parokandaligi yoki ularning o‘zaro aloqasi uzilib qolishi ehtimoldan xoli emas. Biroq muallif asar davomida “voqealar ipini yo‘qotmaydi”. Shu bois romanda ichki uyg‘unlik va yaxlitlik yuzaga keladi.

ASOSIY QISM

“Ikki eshik orasi” romanidagi voqealar Toshkent chekkasidagi qishloqlardan birida, asosan, Ikkinchi Jahon urushi davrida yuz beradi. Shu bilan birga, muallif asarda ayrim hollarda qishloq aholisi urushdan oldingi va keyingi hayotidan ham ta’sirchan epizodlar orqali lavhalar beradi. Yozuvchi asar syujeti va tuzilmasini yaratishda mumtoz adabiyotda (“Sab’al sayyor” dostonida) mavjud bo‘lgan an’anaviy qoliplar asosida ijodiy yondashib, yangicha uslub yaratgan. Romandagi voqealar Robiya, Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra’no, Umar



zakunchi, Olimjon Komilov kabi xilma-xil xarakter va turli tabaqadagi to‘qqiz obraz tilidan bayon etilgan hikoyalar orqali taqdim etiladi. Ushbu hikoyalar mazmun jihatidan bir-biriga mahkam ulanib, o‘zaro to‘ldiruvchi ahamiyatga ega. Natijada ular romanning yaxlit, o‘ziga xos va jozibali syujetini vujudga keltiradi. Asarda bosh qahramonlargina emas, balki Rashid, Abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov kabi epizodik obrazlar ham o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanadi. Asarda sun’iylik yo‘q, aksincha ishonch uyg‘otish mahorati kuchli. Adib murakkab, nozik masalalarni ham, nihoyatda zukkolik bilan hayotiy va ishonarli tarzda yoritadi. Qora ammaning o‘z farzandi Kimsanning suyuklisi Robiyani majburiyat sababli Shomurodga turmushga berishi, Orif oqsoqolning xato qilgan keliniga jur‘at bilan adolatli hukm yuritishi, taqdir yo‘llari chigallashgan Muzaffar va Munavvar muhabbati aks ettirilgan sahifalarda ayniqsa bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi. Muzaffarning urush domlaridagi chigalliklar sababli tirik yetimga aylanishi, ko‘rgan kechirgan azob-uqubatlari, g‘am-alamli hayoti uning onasi Ra’noga bog‘liq og‘riqli xotiralarni yodga soladi. Ra’no, urushning og‘ir sinovlari, hayotiy notinchliklar ichida yo‘lini yo‘qotib, tuyg‘ular girdobida adashadi va nihoyat eriga xiyonat qiladi. U, Umar zakunchining hiylanayranglariga uchib, unga o‘ynash bo‘ladi. Muallif bu fojeali voqealarni bejizga tasvirlamaydi — u chuqur ma’naviy xulosa chiqaradi: Umar zakunchining bag‘ri toshligi, nopok niyatlari, Ra’noning hayotdagi beqarorligi, o‘ylamay qilingan harakatlari, o‘zining qo‘lida bo‘lgan baxtni qadrlay olmagan, ularning ikkalasini ham oxir-oqibat tubanlikka, iztirob va pushaymonlarga to‘la hayot sari yetaklaydi. Ular jamiyat ko‘zidan qoladi, ruhiy azoblarda yashashga majbur bo‘ladi.

Menimcha, bu achchiq oqibatlar ularning o‘z xatti-harakatlariga munosib jazodir. Axir Ra’noning hayotida hamma narsa bor edi: mehribon oila, suyukli umr yo‘ldoshi Shomurod, uning cheksiz muhabbati. Biroq Ra’no bu ne’matlarning qadriga yetmadi. U o‘z nafsining, o‘z ojiz tuyg‘ularining qurboniga aylandi. Natijada, hayoti fojea bilan yakun topdi. Hatto vafot etganida, unga eng yaqin bo‘lgan inson — o‘g‘li Muzaffar — uni so‘nggi yo‘lga kuzatish uchun ham kelmaydi. Bu esa uning qilgan gunohlari oldida taqdirning adolatli hukmidan yangraydi.



Chunki oilaga xiyonat — bu faqat shaxsiy xatolik emas, bu vatan, millat oldidagi xiyonat bilan barobar og‘ir jinoyatdir.

“Ikki eshik orasi” romani boy personajlarga ega. Muallif ayniqsa Orif oqsoqol obrazini mukammal chizgan: u xalq orasida obro‘ga ega, og‘ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga jalb etadigan, donishmand va tashabbuskor shaxsdir. U odamlarni baholashda belbog‘ni mardlik, tantilik va odamiylik belgisi deb hisoblaydi. Shuningdek, Kimsan Husanov ikki bobdagi hikoyasi orqali tanti, mard va jasur yigit sifatida tasvirlanadi, vatani uchun jonini fido etishga tayyor.

Romanda ayollar obraziga alohida o‘rin berilgan. Ayniqsa, Qora amma obrazi yuraklarga ta’sir qiladi. U mehribon, sodda, sabrli va mard ona sifatida tasvirlanadi. Urush davrida olti farzandidan ayrilgan bo‘lsa-da, yagona o‘g‘li Kimsanini mehr bilan voyaga yetkazadi. Yurt uchun jonini fido qilishga tayyor bu ona, farzandini urushga jo‘natadi. Ammo Kimsani qaytmaydi. Qora amma yillar o‘tsa-da, bu haqiqatni tan olmaydi, unga aza tutmaydi. Uning timsolida urush yillaridagi mard, jasur va matonatli o‘zbek onasi gavdalanadi.

Romandagi yana bir ayol obrazi bu – Robiya. Afsuski, taqdir unga ham yuz o‘girmaydi, hayot uni sinovlardan ayamaydi. U yoshligida onasidan erta yetim qoladi va otasining mehr-muhabbati bilan voyaga yetadi. Asarda Robiya aqlli, sabrli, or-nomusli, go‘zalligi va sadoqati bilan ajralib turadigan chinakam o‘zbek qizi sifatida tasvirlanadi. Urush yillarining og‘ir izlari ortda qolgan bo‘lsa-da, u yuragidagi muhabbatini so‘ndirmay, sevgilisi Kimsanni fidokorlik bilan kutishda davom etadi. Biroq... Biroq hayot yo‘llari har doim ham inson istaganidek bo‘lavermaydi. Achchiq taqdir Robiyani o‘zining tug‘ishgan tog‘asiga turmushga chiqishga majbur etadi. Uning begunoh boshiga yog‘ilgan bu og‘ir kunlar esa Ra‘noning ojizlik va noshudlik bilan qilgan nomaqul ishlarining oqibati bo‘ladi. Robiya, aslida, boshqalarning xatolari evaziga azob chekkan, ammo yuragi bardavom, ruhi sinmagan ayol timsolidir.

U sabrli, mehribon, iroda bilan to‘la, o‘zbek ayolining haqiqiy timsoli sifatida barchaga ajoyib na’muna bo‘la oladi. U nafaqat oilaning ustoz, balki jamiyatning ham fidoyi yetakchisi sifatida o‘zining jasorati va kuchini ko‘rsatadi. Uning har bir sahifasida hikoya nafaqat o‘quvchining ongini, balki his-tuyg‘ularini ham o‘ziga



tortadi. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon hech qachon zerikmaydi, aksincha, ular o'sha asar ichida yashab, uni o'z hayotiga chuqur singdiradilar.

XULOSA

Xulosa sifatida, asar yurtimizning og'ir, lekin shu bilan birga faxrlanadigan tarixini o'zida aks ettirgan. Urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, insonlar tomonidan ko'tarilgan og'ir mas'uliyat va fidoyilik, o'z jonini halok etgan jangchilar va fidoyi dehqonlarning qahramonligi tasvirlangan. Asardagi obrazlar, urushning og'irliklarini yelkasida ko'tarib, o'z vataniga sadoqatni, to'rt tomondan muhrlangan insoniyatning sevgi va mehnatni o'zida ifodalaydi. Nikoh kechasida kuyovini jangga jo'natib, kelinlik libosini mehnat kiyimiga almashtirgan, butun qishloqni birlashtirgan odamlarning jasorati, er-xotinlik, ota-ona, bolalar va keksa avlodlarning jismoniy va ma'naviy kurashi bilan tasvirlangan.

Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, muhabbatning achchiq og'riqlari, bu dunyoda yagona to'xtovsiz yugurish, fursatlar ketgan sari ortda qolgan orzular, umidsizlik, yig'i, qarg'ish, g'azab - bularning barchasi romanda muhayyo tarzda va tasavvur qilishni ilhomlantiradigan darajada ifodalangan. Ijodkor o'zining mashhur jumlasida nafaqat o'zi, balki o'quvchining ham dardini, orzularini va umidlarini o'zi bilan birga yashashni niyat qilganini bildirib o'tadi: "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'lga qayta olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu..." Bu so'zlarda esa, asarning har bir sahifasidan, har bir iborasidan o'quvchining ruhiyatida qoladigan izlar va yillar o'tgan sari kuchayib boradigan ta'sirni sezish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Hoshimov, O'. Ikki eshik orasi: roman. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2013. – 320 b.
2. Hoshimov, O'. Sakkizinchi mo'jiza. – Toshkent: Yozuvchi, 2009. – 240 b.
- 3.Boltaboyev, H. El sevgan adib. – Toshkent: Fan, 2011. – 180 b.



4. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida. – Jahon adabiyoti, 2014, №3. – B. 45–50.
5. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida. – Yoshlik, 2012, №6. – B. 38–42